

## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA BADIY ADABIYOT ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Akbarova Mavludaxon Baxtiyor qizi**

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi  
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 61-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374937>

**Annotatsiya:** ushbu maqola boshlang'ich sinf ona tili darslarida badiiy adabiyot orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirishning ahamiyati haqida ma'lumot berish bilan birga, o'quvchilarda badiiy adabiyot orqali nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish usullariga xam to'xtalib o'tadi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности развития речи учащихся посредством художественной литературы на уроках родного языка в начальной школе, а также рассматриваются методы развития речевых навыков учащихся посредством художественной литературы.

**Abstract:** This article provides information about the importance of developing students speech through fiction in primary school native language classes, and also discusses methods for developing students' speech skills through fiction.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, til, nutq, nutq ko'nikmalari, badiiy adabiyot, so'z boyligi, so'z san'ati, rivojlantirish.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, язык, речь, речевые навыки, художественная литература, словарный запас, словесное искусство, развитие.

**Keywords:** education, upbringing, language, speech, speech skills, fiction, vocabulary, word art, development.

Bugungi kunda ta'lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda ona tili darslarining roli nihoyatda katta. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda beriladigan ta'lim – o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi, savodxonligi va tafakkur asoslarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda badiiy adabiyot vositasida o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, so'z boyligini kengaytirish, fikrni aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Odam bolasi dunyoga kelibdiki, to dunyodan ko'z yumgunga qadar ilm olishga, o'zidan yaxshi nom qoldirib ketishga harakat qiladi. U o'zining aql-u zakovati ila zamin va zamoni o'zgartishga, yangilik kashf qilishga urinadi. U o'z hayollarida jonsiz bo'lgan buyumlarni jonli tarzda harakatlantirishga, tutqich bermas, yetib bo'lmas shamol-u to'lqinlarni jilovlashga, zaminni go'zal qiyofaga keltirishni xoxlaydi. Ushbu istaklar orqali u hayollarini ro'yobga chiqaradi. Lekin hayol va hayot o'rtasidagi muayyan holatlarni yanada o'zida mujassam etgan, zamin va zamonning ko'plab hodisalariga guvoh bo'la oladigan, yuzlab avlodlarning qismatini va sir-asrorlarini o'zida jamlagan, makon va zamondan yuqorida turadigan adabiyot degan mo'jizaning borligi esa hayol etmas imkoniyatlarning ulug'i hisoblanadi. Shu tufayli adabiyot deganimizda, azal-azaldan e'tirof etib kelinadigan fikrlar ko'z oldimizda gavdalanadi. Adabiyot inson faoliyatining barcha jabhalarida o'ziga xos bo'lgan poydevor vazifasini ham vazifasini bajaradi. Chunki so'z orqali bayon qilingan fikrlarni eshitib yoki yozma berilgan ma'lumotlarni

o'qib ilhomlangan holda u inson o'zidan yangilik kashf qilishni istaydi. Insonlarning mo'jizalar bunyodkoriga aylantirgan so'zning imkoniyatlari ayniqsa adabiyot asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Badiiy adabiyot – bu til boyligini, estetik didni va milliy ongni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Aynan ertaklar, hikoyalar, dostonlar, she'rlar orqali bolalar hayotiy haqiqatlar, axloqiy me'yorlar, go'zallik va xunuklik tushunchalari bilan tanishadilar. Bu jarayonda ular nafaqat voqea-hodisalarni anglaydilar, balki til boyligi, so'z tanlash, gap tuzish kabi muhim nutqiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan badiiy matnlar bolaning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlanadi. Ular orqali o'quvchi:

- yangi so'zlarni o'rganadi;
- so'zlar ma'nosini anglaydi;
- ifodali o'qish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- matn asosida fikr yuritadi va savollarga javob beradi;
- og'zaki va yozma nutqni shakllantiradi.

Misol uchun, xalq ertaklarini o'rganish orqali bola obrazli tafakkur asoslarini o'zlashtiradi. She'rlar orqali esa tovush madaniyati, urg'u va ohangni his qilishga o'rganadi.

Badiiy matn asosida o'tkaziladigan quyidagi mashg'ulotlar o'quvchilar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi:

1. **Matn asosida savol-javoblar o'tkazish** → O'quvchilar matnni tushunganini so'z bilan ifodalaydi.
2. **Matn mazmunini qisqacha aytib berish** → Bola o'z fikrini bog'liq gaplar orqali ifodalaydi.
3. **Rolli o'yinlar** → Matn qahramonlarining rolini ijro etish orqali nutqni faol qo'llaydi.
4. **She'r yodlash** → Esda saqlash, talaffuz va ohang orqali nutq boyiydi.
5. **Matnga ijodiy davom yozish** → Fikr mustaqilligini, tasavvur va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, badiiy asarlar o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni: halollik, do'stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xislatlarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu fazilatlar og'zaki nutqda ifodalanishi, bolaning fikrlash tarzi va nutq madaniyatida o'z ifodasini topadi.

Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohatlar sodir bo'lmoqda, odamlarimiz tafakkur tarzi o,zgarmoqda. Ana shu ijobiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga yetkazish juda to'g'ri bo'lar edi. Xalqimiz aynan ana shunday kitoblarni kutmoqda. Ayrim vatandoshlarimiz "hozirgi yoshlarga jiddiy badiiy asarlarni tavsiya etgan bilan, ular bunday kitoblarni o'qimaydilar, chunki zamon o'zgardi", deyishmoqda. To'g'ri, zamon o'zgardi. Ammo bizning o'zbekligimiz o'zgargani yo'q. Shunday paytda, yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ular ma'naviy ehtiyojini shakllantirish uchun nimanidir tavsiya etishni ba'zan unutayotganga o'xshaymiz. Yoshlar ma'naviy ehtiyojini shakllantirish uchun ularga ma'noli asarlar tavsiya etishimiz lozim. Bu borada oila maktab, kutubxona tizimlarining hamkorligi, birgalikda ish olib borishi, kutilgan natjani qo'lga kiritishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish o'quvchilarning nutqiy rivojlanishida muhim omildir. Badiiy matnlar orqali bola nafaqat yangi so'zlarni o'rganadi, balki fikrini erkin va aniq ifodalashga o'rganadi. Shuningdek, estetik va axloqiy tarbiya ham nutq madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, pedagoglar har bir darsda badiiy adabiyot namunalaridan keng va maqsadga muvofiq foydalanishlari lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kalandarova, Fazilat Toxirovna Umumiy pedagogika /o'quv qo'llanma/ Kalandarova Fazilat Toxirovna. – Namangan: «SUNRISE-PRO», 2025. – 176 bet.
2. Toxirovna, K. F. (2024). O'qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. Miasto Przyszłości, 51, 146-148.
3. Kalandarova F.T. KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>
4. Kalandarova, F. (2024). O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DEONTOLOGIK YONDASHUV. Namangan Davlat Universiteti.
5. Toxirovna, K.F BO'AJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR Abdullayeva Nasibaxon Jo'rayevna pfd, professor. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI, 120.
6. Kalandarova Fazilat Tokhirovn. (2025). Improving the Deontological Competence of Primary Teachers on The Basis of Educational Technologies. International Journal of Pedagogics, 5(05), 42–45. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue05-11>